

2-dars uchun masalalar

1. $7n+2$ soni juft son bo'lsa, quyidagilarning qaysi biri toq bo'ladi. A) $2n+2$ B) $3n+3$ C) $4+n$ D) $n+2$

2. 156 ning natural bo'luvchilari sonini toping.
A) 6 B) 12 C) 4 D) 16

3. 198 va 630 sonlarining umumiy bo'luvchilari nechta
A) 4 B) 6 C) 7 D) 5

4. EKUB(36;240) ning qiymatini EKUB(6;8) ning qiymatiga bo'ling A) 0,5 B) $\frac{2}{3}$ C) 6 D) $\frac{3}{4}$

5. 720 va 924 ning umumiy bo'luvchilari sonini toping.
A) 8 B) 9 C) 6 D) 3

6. NBS(144) ning qiymatini toping.
A) 15 B) 16 C) 18 D) 9

7. Soatning minut ko'rsatgichi 96^0 ga burilganda soat ko'rsatgichi necha gradusga buriladi
A) 8 B) 10 C) 16 D) 24

8. $27 \cdot 23 - 24 \cdot 23 + 21 \cdot 19 - 18 \cdot 19 + 17 \cdot 11 - 14 \cdot 11$ ning qiymatini toping. A) 165 B) 159 C) 143 D) 203

9. 30 sonining natural bo'luvchilari yig'indisini toping. A) 45 B) 58 C) 72 D) 64

10. Tog'ning cho'qqisiga 5 ta yo'l olib boradi. Borgan yo'ldan qaytmaslik sharti bilan tog'ning cho'qqisiga jami necha xil usulda borib kelish mumkin?
A) 10 B) 20 C) 15 D) 30

11. Quyidagi sonlardan qaysi biri 24 ga qoldiqsiz bo'linadi A) 94824 B) 68740 C) 53542 D) 12354

12. 4680 ni tub ko'paytuvchilarga ajrating.
A) $2^3 \cdot 3^2 \cdot 5^3$ B) $2^3 \cdot 3^2 \cdot 5 \cdot 11$
C) $2^3 \cdot 3 \cdot 5^2 \cdot 13$ D) $2^3 \cdot 3^2 \cdot 5 \cdot 13$

13. 60 va 48 ning umumiy bo'luvchilari yig'indisini toping. A) 28 B) 26 C) 30 D) 24

14. 327 sonini qandaydir songa bo'lganda bo'linma 18 ga, qoldiq esa 3 ga teng bo'ldi. Bo'luvchini toping.
A) 16 B) 18 C) 20 D) 22

15. 0;1;2;3;4;5 raqamlari yordamida jami nechta turli raqamni 4 xonali son tuzish mumkin
A) 216 B) 180 C) 300 D) 125

16. $139 \cdot 163 - 160 \cdot 139 + 141 \cdot 175 - 172 \cdot 141$ ning qiymatini toping. A) 840 B) 852 C) 870 D) 864

17. $5 \cdot 3752$ soni 18 ga qoldiqsiz bo'lsa, * ning qiymatini toping. A) 1 B) 3 C) 5 D) 9

18. $5 \cdot 3642$ soni 11 ga qoldiqsiz bo'lsa, * ning qiymatini toping. A) 4 B) 5 C) 6 D) 3

19. 5;3;4;6;7 raqamlari yordamida nechta toq uch xonali son tuzish mumkin. A) 50 B) 75 C) 100 D) 140

20. A+B ning qiymatini toping.

$$\begin{array}{r} A \overline{) 4} \\ - \quad 3 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} B \overline{) 14} \\ - \quad 9 \\ \hline \end{array}$$

A) 151 B) 155 C) 161 D) 163

21. 4 xonali $2x35$ sonini 3 ga bo'lganda qoldiq qolmasa, x ning qiymatlari yig'indisini toping.
A) 18 B) 12 C) 15 D) 10

22. $3 \cdot 470$ yozuvdagi yulduzchani shunday raqam bilan almashtiringki, hosil bo'lgan son 45 ga qoldiqsiz bo'linsin.
A) 4 B) 5 C) 0 D) 6 E) 8

23. Shunday sonni topingki, uni: 119 ga bo'lganda, 31 hosil bo'lib, 29 qoldiq qolsin.
A) 3718 B) 3812 C) 3782 D) 3781

24. 240 sonining tub bo'luvchilari sonini toping.
A) 3 B) 20 C) 4 D) 15

25. 48 sonining barcha natural bo'luvchilari yig'indisini toping. A) 123 B) 100 C) 108 D) 124 E) 128

26. $6134x$ soni 3 ga qoldiqsiz bo'lsa, x ning qiymatlarini toping. A) 1 B) 4 C) 2 D) 4;2 D) 1;4;7

27. $246 \cdot 013579$ soni 9 ga bo'linishi uchun yulduzchaning o'rniga qanday raqam qo'yilishi kerak?
A) 0 B) 4 C) 7 D) 8 E) 9

28. 840 va 264 ning umumiy bo'luvchilari nechta?
A) 9 B) 4 C) 6 D) 8 E) 7

29. 420 va 156 ning umumiy bo'luvchilari nechta?
A) 7 B) 5 C) 6 D) 4 E) 8

30. $17 \cdot 22 + 45 \cdot 18 - 80 \cdot 30 + 17 \cdot 23 + 35 \cdot 35$ ning qiymatini toping. A) 50 B) 200 C) 400 D) 100

31. 502a sonini 3 ga bo'lganda 1 qoldiq qolsa, a ning eng kichik qiymatini toping. A) 0 B) 1 C) 3 D) 5

32. 120 ning natural bo'luvchilari sonini toping.
A) 10 B) 12 C) 14 D) 16

33. 48;60;84 sonlarining eng katta umumiy bo'luvchisini toping. A) 4 B) 6 C) 8 D) 12

34. 32 va 80 sonlarining EKUBi va EKUKi ning yig'indisini toping. A) 160 B) 168 C) 172 D) 176

35. Soat 7:30 da soat va minut millari orasidagi burchak necha gradusga teng. A) 30 B) 60 C) 45 D) 150

36. $26 \cdot 102 \cdot 78$ ko'paytmaning natural bo'luvchilari soni nechta? A) 32 B) 48 C) 60 D) 72

37. 48 dan kichik nechta son 48 bilan o'zaro tub bo'ladi A) 16 B) 20 C) 25 D) 30

38. O'zaro tub sonlarni belgilang
A) (12;15) B) (18;27) C) (11;19) D) (30;63)

39. 323, 254, 70 sonlarining har birini qanday natural songa bo'lganda qoldiqlari bir xil bo'ladi?
A) 22 B) 21 C) 23 D) 17

40. 15 va b sonlarining EKUKi 60, EKUBi 3 ga teng. b sonini toping. A) 20 B) 24 C) 12 D) 180

41. Hisoblang. $274 \cdot 273 - 273 \cdot 272 + 328 \cdot 327 - 327 \cdot 326$
A) 310 B) 1200 C) 600 D) 45

42. 1011121314...99 sonini 9 ga bo'lgandagi qoldiqni toping. A) 1 B) 0 C) 8 D) 5

43. 4200 sonining tub bo'luvchilari yig'indisini toping.
A) 17 B) 18 C) 48 D) 14880

44. 84858687...121122123 sonining raqamlari yig'indisini toping. A) 548 B) 360 C) 447 D) 374

45. $457mn$ besh xonali son 30 ga qoldiqsiz bo'linsa, m raqamining olishi mumkin bo'lgan eng katta qiymatini toping. A) 8 B) 2 C) 5 D) 9

46. Uch xonali 93A soni 11 ga qoldiqsiz bo'linsa, A ning qiymatini toping. A) 1 B) 3 C) 5 D) 6 E) 8

47. 45 ni bo'lganda 5 qoldiq qoladigan sonlar yig'indisini toping. A) 60 B) 70 C) 78 D) 80

48. $54 \cdot 37 + 46 \cdot 37 + 54 \cdot 24 + 46 \cdot 24$ ning qiymatini toping.
A) 3700 B) 4600 C) 5400 D) 6100

49. 123456...4950 sonining raqamlari yig'indisini toping.
A) 320 B) 330 C) 340 D) 400

50. 2;3;4;5;6;7;8 raqamlaridan foydalanib nechta turli raqamli 3 xonali son tuzish mumkin
A) 84 B) 105 C) 140 D) 210

51. y ning qanday qiymatida $1423y$ soni 6 ga qoldiqsiz bo'linadi. A) 3;6;9 B) 0;6 C) 4 D) 2;8

52. 6321a soni besh xonali bo'lib, 12 ga qoldiqsiz bo'linadi. a ning qiymatini toping.
A) 0 B) 2 C) 4 D) 6

53.


SERTIFIKAT SAVOLLARI

1. 24 kishi bir-biri bilan salomlashganda qo'l berib ko'rishishlar soni qancha bo'ladi?
A) 240 B) 276 C) 324 D) 576

2. O'quvchi dastlabki 100 ta tub sonlarni ko'paytirib chiqdi. Ko'paytma nechta nol bilan tugaydi?
A) 0 B) 1 C) 24 D) 29

3.

.. A nuqtadan D nuqtaga necha xil usulda borish mumkin?



A) 6 B) 28 C) 30 D) 42

4. Agar kamayuvchini 13 ta va ayriluvchini 17 ta orttirilsa ayirma qanday o'zgaradi?

A) 30 ta oshadi B) 30 ta kamayadi
C) 4 ta oshadi D) 4 ta kamayadi

5. Ikki sonning nisbati 7:9 kabi. Agar ularning eng katta bo'luvchisi 6 ga teng bo'lsa shu sonlarni yig'indisini toping. A) 96 B) 48 C) 72 D) 64

6. $a; b; c$ lar ketma-ket toq sonlar bo'lsa, $\frac{2b-c}{a}$ ning qiymatini toping. A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

7. Ikki sonning ayirmasi 27 ga teng. Agar birinchi sonni ikkinchisiga bo'lsak, bo'linma 4 ga va qoldiq 3 ga teng chiqadi. Berilgan sonlarning yig'indisini toping.
A) 38 B) 31 C) 43 D) 29

8. $218+218+218+\dots+218$ ifodada 218 soni 35 marta qo'shildi natijani 9 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.
A) 4 B) 5 C) 6 D) 7

9. 8-a sinfda juma kuni 4 soat dars: rus tili, algera, fizika, kimyo darslari bo'ladi. Bu darslarni dars jadvaliga necha xil usul bilan joylashtirish mumkin?
A) 4. B) 12. C) 20. D) 24.

10. $a; b; c$ lar turli raqamlar bo'lsa, $7a+2b+3c$ ning eng katta qiymatini toping. A) 101 B) 7 C) 19 D) 97

11. Ikki xonali sonlarda ikki raqami ham juft bo'ladigan raqamlari takrorlanmaydigani nechta?

A) 25 B) 16 C) 20 D) 5

12. 480 ning natural bo'luvchilari sonini toping.

A) 14 B) 24 C) 48 D) 32

13.

